

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti "Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi

404-guruh talabasi **Sh. Sulaymonovning**



REFERAT

**Mavzu: MUSTAQILLIK MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH
TAMOYILLARI**

Ilmiy rahbar: U. Musayev.

Kafedra mudiri : M. Sobirova.

TOSHKENT-2014

**Mavzu: MUSTAQILLIK MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH
TAMOYILLARI**

REJA:

I. Kirish

II. Asosiy qism.

- 1) Mustaqillik-o'zbek xalqining azaliy orzusi.
- 2) Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish zaruriyati
- 3) Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish tamoyillari

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.Mustaqillik jahon tarixiy taraqqiyotiga o'zining qadimiy ilm-fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan ulkan qissa qo'shgan o'zbek xalqi qayotida, jumhuriyatimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar, elatlar va millatlar tarixiy taqdirida ro'y bergan buyuk voqeadir. Bu aslini olganda, qadimiy O'zbekistonning yangi tarixini-mustamlakachilik azob-uqubatlaridan toabad qutulib, ozodlikka chiqish, erkin hayot kechish, o'z taqdirini o'zi hal etish huquqiga ega bo'lish davrini boshlab bergan tub burilishdir. Mustaqillikning ahamiyati beqiyos va uni oddiy so'z bilan tushuntirib berish qoyat mushkul.

Mustaqillik xalqimizning ozodlik, qurriyat, erkinlik shabadasidan to'yib-to'yib nafas olishi, o'zining qaqiqiy insoniy baxti va istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo'lishidir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida mustaqillikning tarixiy ahamiyati atroflicha ochib berilgan.«Biz uchun mustaqillik eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyshtalikni, barharorlikni saqlashdir.Aziz vatanimizda adolat, insof, dinu diyonat, mehru oqibatni haror toptirishdir.

Mustaqillik, bu, eng avvalo, O'zbekiston tuproqida yashaydigan har bir inson uchun, uning millati, dini va e'tiqodi qandayligiga qaramasdan munosib hayot yaratish, insoniy, fuqarolik haq-huquqlarini himoya qilish va amalga oshirishdir.

Mustaqillik-respublikamizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jiqatdan kamol toptiruvchi, uning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va shart-sharoitlarini qisobga oluvchi o'z taraqqiyot yo'lini, milliy istiqlolni, o'ziga xos va mos bo'lgan mafkurasini yaratish imkoniyatiga ega bo'lishidir.

Mustaqillik olis kelajakka tomon tashlangan dastlabki qadimdir. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi uning poydevorini qozir qanchalik mustaqkam va baquvvat qilib barpo etishimizga boqliq.

Ne-ne azobu uqubatlar evaziga erishgan mustaqilligimizni ko'z qorachiqidek asrash, avaylash, qadrlash, uning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy asoslarini yaratish va mustaqkamlash uchun fidokorona mexnat qilish, sobit qadamlik bilan kurash olib borish-qozirgi davrdagi asosiy vazifadir. Ungacha mustaqillik qo'limizda qo'nib turgan baxt qushidir. Eqtiyot bo'lmasak, eng muqim vazifalarni vaqtida bajarmasak, bu qushni uchirib yuborib, imkoniyatlarni qo'ldan boy berib qo'yishimiz qech gap emas.

«Odamlarga shuni anglatish kerakki, qdeb ta'kidladi Islom Karimov respublikamizning atoqli shoir va yozuvchilari bilan bo'lgan uchrashuvda, bizga berilgan imkoniyat yuz yilda bir marta kelishi mumkin. Asosiy masala shundan iboratki, mustaqillikni saqlab qolishimiz, uni kelajak avlodlarga omon etkazishimiz, qadrini to'qri tushunishimiz lozim. Endi qaddimizni ko'tarishimiz kerak»

Mustaqillikni qo'lga kiritish xalqimiz uchun qanchalik oqir va mashaqqatli bo'lgan bo'lsa, uni saqlab kolish, mustaqkamlash va takomillashtirish undan bir necha bor murakkab bo'lsa murakkabki, lekin aslo kam emas. Buni harkimhar doim yodda tutmoqi lozim.

Mustaqillikni saqlash va mustaqkamlash odamlar moddiy turmush sharoitini yaxshilash bilan birga ma'naviyat bilan xam uzviy boqlikdir. Ma'naviyat mustaqillik zaminini mustaqkamlashning, uni yanada barharorlashtirish va takomillashtirishning zarur omillaridan biridir. Agar mustaqillikning ma'naviy zamini mustaqkam bo'lmasa, u barharor bo'la olmaydi.

Mazkur kurs ishida mustaqillik o'zbek xalqi tarixida, jumquriyatimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar qayotida ro'y bergan chinakam buyuk voqea ekanligi, uning moqiyati, mustaqillikning qiyinchiliklari, ziddiyatlari,

murakkabliklari, eng dolzarb muammolari, va ularning namoyon bo'lish shakllari, istiqbolimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy asoslari, ma'naviy zaminlari, uning rivojlanish qonuniyatlari qaqida ba'zi fikr-muloqazalar bayon etiladi. Shuningdek, kurs ishida mustaqillik va milliy tiklanish dialektik aloqadorlikda ekanligi, bir-biriga o'zaro tasir etishi, milliy tiklanishning moqiyati, mazmuni, namoyon bulish shakllari, tarixiy ahamiyati ustida so'z yuritiladi. Ana shu jihat ushbu kurs ishi mavzusining dolzarbligini beldilaydi.

Mavzuning maqadi.Mustaqillik-o'zbek xalqining azaliy orzusi ekanligini ilmiy asoslash, mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish zaruriyatini tahlil qilish, mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash.

Mavzuning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mustaqillik-o'zbek xalqining azaliy orzusi ekanligini ilmiy asoslash;
- Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish zaruriyatini tahlil qilish;
- Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash.

1.Mustaqillik-o'zbek xalqining azaliy orzusi

Mustaqillik O'rta Osiyo xalqi uchun doim orzu bo'lib keldi. Bosqinchilarga qarshi kurash, erk va mustaqillik uchun kurash qayot-mamot janglari o'tmishida bu yurt uchun bir laqza bo'lsa-da tingani yo'k. Buni Aleksandr Makedonskiyga qarshi xalqimizning asl farzandi Spitamen raqnamoligida olib borilgan kurashlar misolida ham kurish mumkin. Iskandar harbiy jiqatdan ustun bo'lsa-da, Spitamenni jang maydonida engal olmaydi, balki xoinlar qo'li bilan qatl ettirdi.qatl ettirdi-yu, ammo Spitamenning jasorati, mardligiga uning o'zi ham tan berdi.

Vatan takdiri, ona yurt tuproqini muqaddas bilish, uning ozodligi, istiqboli uchun kurash tuyquasi xalqimizning qon-qoniga, ruqiyatiga chuqur singib ketgan. Ular qullikdan ko'ra, istiqlool uchun, qur yashash uchun, Vatanning ozidligi uchun jon fido qilishni afzal ko'rib yashashgan.

VIII asrda O'rta Osiyoga bostirib kirgan arablar ham ana shunday fidoiy odamlar harshiligiga duch keldi.Arablar bilan bo'lgan janglarda minglab odamlar shaqid ketdilar.Istiloohilar zo'rlik, xunrezliklar bilan yurtimizni bosib oldi. Ular ko'plab qishloq va shaharimizni vayron etdilar, boyliklarimizni taladilar, minglab odamlarni qirdilar, qullik iskanjasiga soldilar. Eng achinarlisi shundaki, xalqimiz tomonidan yaratilgan jamiki boyliklarni, ma'naviy xazinalarimizni er bilan yakson qilishdi, maqalliy yozuvlarimiz, qadimiy kitoblarimiz, tilimizni, qatto urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimizni siqib chihardi.

Bu haqda buyuk allomalarimidan Abu Rayxon Beruniy o'zining “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday degan edi: “qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilmini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, qaqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi”.

Arablarga harshi kurash xalq tomonidan ko'tarilgan qo'zqalonlarda o'z aksini topdi. Bu qo'zqalonlardan eng kattasi 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand,

qashqadaryoda bo'lgan, keyinchalik butun Movourannaqrning barcha qududiga yoyilib ketgan Muqanna boshchiligidagi qo'zqalondir.

qo'zqalon garchi maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, lekin bosqinchilar saltanatini larzaga keltirdi, xalqimizning ozodlik va mustaqillik dushmanlariga bo'lgan qagr-qazab va nafratini avj oldirib, ona Vatanga bo'lgan farzandlik meqr-muqabbatini kuchaytirib yubordi.

Arablar bosqini davridan ko'p o'tmay, XIII asrning birinchi yarimida O'rta Osiyo yana bosqinchilar istilosi girdobida qoldi. Endi Chingizxon boshliq tatar-mo'qul galalariga harshi kurashishga to'qri keldi. Tarixning shu davriga oid saqifasini varaqlar ekanmiz, Muqanna kabi Vatan uchun jon fido qilgan, qullik va mut'elikdan ko'ra ozod bo'lib o'lishni afzal ko'rgan. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Maqmud Tarobiy, Shamsiddin Maqbubiy kabi xalq qaqramonlari ko'rsatgan jasoratlarini o'qiymiz. Garchi ular tomonidan olib borilgan harshiliklar maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, ularning ko'rsatgan jasorat va mardliklari keyingi avlodlarga na'muna, qattoki, yo'lchi yulduz kabi, mustaqillik uchun kurash yo'li bo'lib qoldi.

Muqullar mo'ri-malaxdek yopirilib, Movouronnaqr shaharva qishloqlarini vayrona etar ekanlar, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va Maxmud Tarobiylar soni kundan-kunga ko'payib bordi. Tarix saqifasida Sarbadorlar harakati deb nom olgan harakat ham ana shu bosqichi muqullarga harshi yuzaga kelgan harakat edi.

Mo'qullar bosqiniga harshi sarbadorlardan aloqida Temurbek va amir Xusaynlar ham o'z qo'shini bilan jang qildilar. Tarixda "loy jangi" deb nom olgan bu jangda ular mo'qullardan engilib, Amudaryo soqiliga chekinishga majbur bo'ldilar. Sarbadorlarning muvoffaqiyatini eshitib Temurbek va amir Xusayn Movourounnaqrga, aniqroqi, Samarqandga qaytib sarbadorlar sardorlari Mavlonzoda va Abu Bakr Kalaviy bilan uchrashadilar. Ammo, Sarbadorlarga nisabatan qayrligi bo'lgan amir Xusayn ularni o'ldirishga urinadi. Temurbek

to'xtatib qoldi. Chunki uning Sarbadorlarga nisbatan ko'nglida qech qanday yomonligi yo'q edi.

Temurbek Sarbadorlar tomonidan o'tkazilayotgan isloqatlarni qo'llab-quvvatlar ekan, kelgusida Movorounnaxrning ozod va osoishta mamlakatga aylanishida Mavlonzodadek mard va vatanparvar kishilar zarurligini bilar edi.

Mamlakatni 145 yil ezib kelgan muqul bosqinchilaridan butunlay ozod etish taqdir taqozosi bilan Temurbek zimmasiga tushdi. U muqullarga harshi olib borilayotgan kurashda mudom pand berib kelayotgan amir Xusayndan xolos bo'lganidan so'ng, muqullarga harshi kurashni butunlay o'z qo'liga oldi. O'zining usta sarkardaligi, favqulotda tadbirkorligi bilan, o'ta kuchli iste'dodi orqali butun bir xalqni dushmanga harshi otlantira oldi.

Shu o'rinda I. Karimovning quyidagi so'zini eslab o'tishimiz lozim. "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deyilar. Bunda qo'shimcha qilib soqibqiron bobomizning suronli qayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayqusi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin".

Darqaiqat, Amir Temurning Turkiston tarixi oldidagi xizmati shundaki, u Turonzaminni mo'qul istibdodidan xalos etdi, unga yana qaytadan qayot baxsh etdi. Bu erda qudratli markazlashgan davlatni barpo etib, Vatanni ozod, obod, farovon, osoyishta mamlakatga aylantirdi.

Mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmagan va kiritilmaydi. Yuqorida ko'rib o'tgan kurashlar zaminida necha minglab xalq farzandlarining muborak jonlari, daryo bo'lib, oqqan qonlari yotibdi.

Mustaqillikni saqlash va mustaqkamlash odamlar moddiy turmush sharoitini yaxshilash bilan birga ma'naviyat bilan xam uzviy boqlikdir. Ma'naviyat mustaqillik zaminini mustaqkamlashning, uni yanada barharorlashtirish va takomillashtirishning zarur omillaridan biridir. Agar mustaqillikning ma'naviy zamini mustaqkam bo'lmasa, u barharor bo'la olmaydi.

Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi roli va ahamiyati iqtisodiy va siyosiy omillardan qech bir kam emas. Buni real voqelikning o'zi, mustaqilligimizning tarixiy tajribasi va istiqbolimiz aniq ko'rsatib turibdi.

Madaniyat va ma'naviyat bilan bevosita boqliq bo'lgan muammolarni xal etmasdan, mustaqillik qaqidagi qoyalar va tushunchalarning ommaning ongiga chuqur singib, e'tiqodiga aylanib ketishiga erishmasdan turib mustaqillikni mustaqkamlab va barharor etib bo'lmaydi.

Mustaqillikning moqiyati, tarixiy ahamiyatini tushuntirish, tarqib-tashviq qilish asosida xalqni olijanob ishlarga jalb etish qozirgi davrda istiqlol mafkuramizning muqim talablaridan qisoblanadi.

Ana shu masala ustida chuqur o'ylash, muloqaza yuritish, uning o'ziga xos qiyinchiliklari, muommolari nimalardan iboratligini bayon etish, qal etilish yo'llarini, echimlarini, ilmiy-nazariy, qoyaviy, axloqiy asoslarini yoritish qozirgi davrda ham ilmiy, xam amaliy ahamiyatga molikdir.

Mustaqillik uchun kurashning mazmun va moqiyati, milliy istiqlolimizning paydo bo'lish tarixi, uning tarixiy taraqqiyot qonuniyati, o'ziga xos muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy, qoyaviy axloqiy asoslarining ilmiy-falsafiy ma'nosi nimalardan iborat ekanligini keng va atroflicha taqlil etish, undan tegishli xulosalar chiharish anchagina murakkab masaladir.

So'z yuritilayotgan ilmiy muammolarning yana bir o'ta muqim, anchagina murakkab va mas'uliyatli jiqati ham bor. Bu mustaqillikning milliy tiklanish bilan o'zaro dialektik aloqadorligi qaqidagi ilmiy muammodir.

Mustaqillik va milliy tiklanish o'zaro boqliqdir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Mustaqillik milliy tiklanishning, milliy qadriyatlar rivojlanishining asosidir. Chor mustamlakachiligi davridan boshlab sobiq sovet jamiyati emirilishigacha o'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida toptalgan: kamsitilgan, taqqirlangan, nazar pisand qilinmagan milliy qadriyatlarimizni tiklash asliga

keltirish, yanada rivojlantirish, takomillashtirish uchun asosiy va birdan-bir shart-O'zbekiston Davlat mustaqilligiga ega bulishdir.

Davlat mustaqilligiga erishmasdan milliy tiklanish qaqida o'ylashning o'zi ham ortiqcha ekanligini yaqin va o'tmish tariximizning achchiq va ibratomuz saboqlaridan, qalqimizning boshiga tushgan mustamlakachilik tuzumi davrida beqisob azob-uqubatlar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, huquqiy soqalardagi taqqirlashlar misolida ko'rdik.

Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mustaqillik, xalqimiz qo'liga kiritgan ozodlik, erkinlik, qurriyat, milliy istiqlolimiz jumquriyatimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti hamda milliy tiklanishimiz, milliy qururimiz, milliy qadriyatlarimiz o'sishi va rivojlanishi uchun qanchalik muqim bo'lsa, o'z navbatida O'zbekistondagi insonparvarlik qoidalariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyatimizning porloq kelajagi, jumquriyatimizning bundan keyingi taqdiri, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy zaminlarining qanchalik mustaqkam va barharorligi ma'naviyatga ham bevosita boqliqdir. Bu-qech kimga sir emas.

Ma'naviyatimizni rivojlantirish, uning mustaqilligimizni mustaqkamlashning zarur omillaridan biriga aylanishiga erishish uchun milliy jiqatdan tiklanishga muvaffaq bo'lish, milliy ong, milliy madaniyat, milliy o'zligini anglash, milliy qadriyatlar, milliy til, milliy qurur va iftixor singari millatni millat qiladigan asosiy belgilar, fazilatlar va xislatlarning shakllanishi, rivojlanishi va to'xtovsiz o'sib borishiga erishmoq zarur.

Milliy tiklanish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz qayotining hamma soqalarni: iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma'naviyatni ham, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, qunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalarni o'z ichiga hamrab oladi.

Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo'lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni o'z ichiga hamrab oladigan murakkab jarayondir.

Mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Ma'lumki, qadimiy Turkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiy mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, qasadu qavasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtaqlarini avj oldirib kelgan. Bu yurtga, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchi galalar bostirib keldi va xalqini asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. har safar bu erning vatanparvar xalqi o'z vatani mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiy davrlardan boshlab dushmanlarga harshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosi yoki V asrda Eftalitlar bosqini, Eron shoqlari va Yunon-makedon imperatorlarining, arablar va tatar-mo'qil bosqinchilarining istilochilik harakatlarini eslab o'tishi kifoyadir.

Dushmanlarga harshi olib borilgan kurashlar qaqida gapirganda, Kayxusrav boshchiligidagi Eron bosqinchilariga harshi kurashda ayol bo'lsa-da, xalqi uchun mardlik va qaqramonlik ko'rsataolgan dovyurak To'marisni eslamay ilojimiz yo'q. qech narsadan tap tortmay, o'z xalqini qimoya qilgan, yurti, ona tuproqini har narsadan ustun qo'ygan, dushmanning makr-xilasini ziyraklik bilan sezgan bu ayol qaqramonligi tarix saqifalarida abadiy muqrlangan.

Erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlikni buyuk maqsad deb bilgan, ana shu niyat yo'lida o'zining shaxsiy baxti va quvonchidan, jonu jaqonidan o'z qoxishi ila voz kechgan Shiroqning Turon eliga bostirib kelgan podsho Doro qo'shinlarini aql-idrok ishlatib enganligini tarix qech qachon unutmaydi. Shiroqning buyuk jasorati asrlardan asrlarga o'tib tillarda doston bo'lib kelmoqda.

Vatan takdiri, ona yurt tuproqini muqaddas bilish, uning ozodligi, istiqboli uchun kurash tuyquasi xalqimizning qon-qoniga, ruqiyatiga chuqur singib ketgan.

Ular qullikdan ko'ra, istiqlol uchun, qur yashash uchun, Vatanning ozidligi uchun jon fido qilishni afzal ko'rib yashashgan.

Xulosa qilib aytganda, mustakillik O'rta Osiyo xalqi uchun doim orzu bo'lib keldi. Bosqinchilarga harshi kurash, erk va mustaqillik uchun kurash qayot-mamot janglari o'tmishida bu yurt uchun bir laqza bo'lsa-da tingani yo'k. Bu masala o'z vaqtida qanchalik ahamiyatli bo'lgan bo'lsa, oradan shuncha yillar o'tgan bo'lsa-da, muhim ahamiyatga ega.

2. Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish zaruriyati

Mustaqillik qech bir joyda oson, ravon, tep-tekis qo'lga kiritlgan emas.qaysi davlatda mustaqillik amalga oshar ekan, u o'sha xalqning qoni va muqaddas joni evaziga, qayrat shijoati, matonati, sabru bardoshi orqali amalga oshgan.

O'zbekistonda ham shunday bo'ldi. O'sha taqlikali 90-yillar tarix saqifalariga o'ziga xos voqealar bilan bitildi.Taqlikali deyishimizga sabab, birinchidan, Kremlning qo'lida qo'qirchoqqa aylanib qolgan, mustaqil fikrga ega bo'lmagan, o'z millatimizdan chiqqan munofiqlar butun O'zbekistonni xonavayron qilishdi.Milliat sha'niga, uning asrlar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga, milliy qadriyatlariga doq tushirishdi. Butun o'zbek xalqini poraxo'r, laganbardor, o'qri va muttaham qilib ko'rsatishdi. Natijada yuzlab tajribali etuk raqbarlar qasddan yo'q qilindi. "Paxta ishi" baqonasi bilan makazdan yuborilgan desantchilar Ivanov va Gdlyan boshchiligida navbatdagi qataqonlikni boshlab yuborishdi.

Ikkinchidan esa o'zlarini millatparvar va vatanparvar qilib ko'rsatayotgan soxta demokratlar O'zbekistonda ham paydo bo'lgan, shundayin ham etishmovchiliklar tufayli qiynalib qolgan xalqni orasida porakandalikni avj oldirish uchun turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, mojarolar chiharish orqali mamlakatda norozilikni kuchaytirishga va xokimiyatning egallashga urundilar.

Ayrim aqidaparast kimsalar esa islom dinini qimoya qilish niqobi ostida qo'poruvchilik ishlari bilan shuqullanishdi. Xalq bilan qukumat o'rtasiga nifoq solishga urinishdi.

Mana shu sabablar tufayli istiqloolning dastlabki yillari mamlakatda bir qator tartibsizliklar bo'lib o'tdi: 1989 yil Buka va Parkentda, 1990 yil. O'sh va O'zganda, 1991 yil 8-dekabr Namanganda, 1991 yil oktyabrb-Oliy Kengashning XII-sessiyasida prezidentga qukum, 1992 yil Toshkentda-Talabalar shaharchasida, 1992 yil 16 fevralida Toshkentdagi qo'poruvchilik harakatlari ana shular jumlasidandir.

Ammo, qanimlar qanchalar harakat qilmasin, o'zbek xalqi o'zining sabr-toqat fe'lligi, muloqazakorligi tufayli buzqunchi kuchlarning manfur maqsadlari orqasidan ergashmadi. Aksincha asrlar davomida orzuga aylanib va minglab farzandlari ko'raolmay ketgan istiqloolni o'z qo'llarida saqlab, uni yanada mustaqkamlash uchun fidokorona meqnat bilan shuqullanishga kirishdilar. O'zbekistonda Mustaqillikni qo'lga kiritishda va uni saqlab qolishda prezident I.Karimov xizmatlari kattadir. U prezident sifatida o'sha murakkab bir davrda xokimiyat tepasiga keldi. O'ta tadbirkor raqbar, moqir diplomat, chuqur bilim soqibi va uzoqni ko'raoladigan prezident sifatida mamlakat xalqini davrning barcha sinovlaridan qech bir talofatsiz olib chiqa- oldi. Eng murakkab vaziyatda xalq bilan birga bo'ldi, uning dardlarini eshitdi va shunga harab yo'l-yo'riq tutdi. G'animlar o'z harakatlari, buzqunchiliklaridan katta natijalarni kutgan edi, O'zbekistonni parchalab, o'zlari xoxlagan davlatni qurmoqchi edi.

O'sha davr voqealari qaqida "Vek" gazetasi shunday yozgan edi. "SSSR parchalanib ketgandan so'ng eng daqshatli voqea O'zbekistonda bo'lishi kerak edi. Lekin bunday bo'lmadi. I.Karimov birorta ham xatoga yo'l qo'ymadi."1

Islom Karimovning o'zi esa bu haqda nutqlarini birida, O'zbekistonning taraqqiyoti uchun nimaiki qilgan bo'lsam shu xalqning saylab qo'ygan vakili,

xalqning bir farzandi sifatida amalga oshirdim. Mendan boshqa odam bo'lganda ham shunday qilardi, degan kamtarona fikrni bildirgan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy soqalarda asta-sekin o'zgarishlar, isloqotlar amalga oshirishga kirishildi.

O'zbekiston avvalambor, qech kimdan kam bo'lmagan mamlakat. U o'zining bebaqo tabiiy boyliklariga, suyagi meqnatda qotgan meqnatkash xalqiga, qadimiy va unutilmas tarixiy tajribasiga ega. Shuning uchun, istiqlolning dastlabki kunidanoq o'ziga xos, o'ziga mos taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Ajdodlar tajribasi, o'gitu pand-nasiqatlariga suyanib, taraqqiyot etgan dunyo davlatlaridan ilqor yutuqlarni qabul etgan qolda mustaqillik yo'lidan dadil odimlamoqda.

I. Karimov o'z asarlarida, so'zlagan nutq va ma'ruzalarida O'zbekistonning kelajagi, taraqqiyot yo'li, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni ilmiy-nazorat jihatdan asoslab berdi va rivojlantirib keldi.

U mamlakat istiqboli qaqida shunday deydi: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, aqil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yi avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi, ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun baqishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik va madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir".

O'zbekiston o'zining Mustaqillikdan so'nggi taraqqiyoti davomida juda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Mamlakatning siyosiy soqasida huquqiy davlatni barpo etish va mustaqamlash amalga oshirildi. Avvalambor, O'zbekiston Konstitutsiyasi loyiqasi umumxalq muqokamasiga qo'yildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda jiddiy o'zgarishlar bilan qabul

qilindi. 2003 va 2006 yil uning ayrim modalariga o'zgartirishlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zining mazmun moqiyati bilan qalqchil, umuminsoniy qadriyatlar va milliy tamoyillarga egadir.

Parlamentimiz-Oliy Majlis dunyo taraqqiyotiga mos ravishda ikki palata asosida o'z ishini davom ettirmoqda. qabul qilinayotgan qonunlarga xalq maqsadi va manfaatiga asoslangan.

Siyosiy partiyalarga imkoniyatlar yaratilgan, mamlakatda demokratiya, plyuralizmga keng yo'l ochilgan.

Mamlakatning iqtisodiyotida amalga oshirilgan o'zgarishlar mulkchilik va tadbirkorlikni, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni, yangi tajribalar va iqtisodiy yangiliklarni raqbatlantirish, korxonalar, fermerlarga erkinliklar, shaxsiy tomorqa egalariga yordam berish bo'yicha ham qanchadan-qancha qonunlar qabul qilish bilan davom etmoqda.

2007 yilning Ijtimoiy ximoya yili deb atalishi ham bejiz emas. Bu dastur aqolining ijtimoiy qimoyaga muqtoj qatlamini ijtimoiy qimoya qilishga haratilgandir. "Eng avvalo, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida el-yurtimiz qayotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan oqir oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy muqofazaga birinchi galda muqtoj bo'lgan aqoli toifalari-ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolqiz keksalar, etim-esir va nogironlar, talaba va pensionerlar manfaatlarini har tomonlama qimoya etish bo'yicha qilgan ishlarimizni ta'kidlash joiz"¹.

Madaniy-ma'naviy soqada bir qator ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bir vaqtlar nomi qoralanib, xalq dushmanlariga aylangan milliy-ozodlik kurashi yo'lida qatoqonga uchragan ota-bobolarimizning nomlari oqlandi, ularning qayoti, ishlari keng yoritildi. Cho'lpon, Fitrat, Abdulla qodiriy, M.Beqbudiy kabi ma'rifatparvarning asarlari yana qayta-qayta nashr etildi. Ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida "qataqon qurbonlari xotirasi" muzeyi va "Shaqidlar xotirasi" yodgorlik majmui tashkil etilib, 2001 yil 1 may

farmoni bilan 31 avgust kunini “qatoqon qurbonlarini yod etish kuni” deb e’lon qilindi.

Milliy va diniy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Bir vaqtlar sho’rolar ta’qib qilgan Navro’z, qayit bayramlarimiz yana qayotga qaytarildi. “qur’oni karim” “qadis” va boshqa muqaddas kitoblarimiz o’zbek tiliga tarjima qilinib, xalqimiz qo’liga tutqazilishiga imkon yaratildi. Aqmad Yassaviy, S.Olloyor va boshqa islom dini namoyondalari asarlari chop etilmoqda.

Barcha milliy-ma’naviy qadriyatlarimizning qayotga qaytarilish, xalq o’z udumlari bilan emin-ekrin shuqullanishi faqat istiqlol davridagina amalga oshdi.

O’zbekiston endi mustaqil mamlakat. U o’ziga tegishli barcha masalalarni o’zi qal etaoladigan davlat. Mustaqillik sharofati bilan dunyoga chiqdi. Uni dunyoning yuzdan ortiq davlati tan olgan. Yuzga yaqin davlatlar bilan har tomonlama diplomatik aloqalar o’rnatishga musharraf bo’lgan mamlakat sifatida, o’zaro teng huquqlar asosida hamkorlikni davom ettirmoqda.

Mana shularning hammasi millatimiz, xalqimiz taraqqiyotida katta rol o’ynaydi. Mamlakatimizning har soqada muvaffaqiyatlarga erishishida har birimiz o’z fidokorona meqnatimiz bilan qissamizni qo’shoqimiz va qo’lga kiritilgan istiqlolimizni ko’z qorachiqidek asrab-avaylab saqlashimiz kerak.

“Yuksak marralarga erishish uchun, qech kimdan kam bo’lmaydigan qayot barpo etish uchun o’zimizning kuch-quvvat va harakatlarimizni ayamasligimiz kerak. Eng muqim, yurtimizda o’zaro qurmat va hamjiqatlik, aqillik va meqr-oqibat muqitini yanada mustaqkamlash oldimizda turgan barcha vazifalarni amalga oshirishda eng katta poydevor bo’lishini unutmasligimiz zarur”degan edi I.Karimov.

3.Mustaqillik ma'naviyatini rivojlantirish tamoyillari

Mamlakatimizda mustaqillik tufayli barcha soqalarda bir qator isloqatlar amalga oshirildi va kattagina muvofaqqiyatlarga erishdik. Aqolining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy qayotida bir qator o'zgarishlar ro'y berdi. Ammo, bu mamlakat barcha muammolardan xoli degani emas, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham xozir va kelajakda kechiktirmay qal etilishi zarur bo'lgan o'z muammolari mavjud. Anna shu muammolarni xal etish orqali mustaqillikni mustaqkamlash O'zbekistonning bugungi kundagi eng asosiy vazifasidir.

O'zbekiston iqtisodiyotida tashabbuskorlik tadbirkorlik va erkin bozor munosabatlarini davom ettirish mamlakatimiz oldida turgan vazifa bo'lib, sanoat tarmoqlarini kengaytirish, o'rta, kichik biznes sub'ektlariga yaratilgan imkoniyatlarni yanada kuchaytirish zarur. Islom Karimov aytganidek, ayniqsa qishloqda yashovchi aqoli uchun ish joylarini tashkil etish, odamlar ishni izlab shaharga kelishlarini emas, ish o'rinlarini ular yashaydigan qishloq joylariga olib borish kerak. Bu bilan aqolining asosiy qismi yashaydigan qishloqlarning zamonaviy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilish va aqoli bandligini qal etish mumkin.

Xozirgi paytda er o'z egasini topdi, ya'ni uzoq muddatli ijara asosida deqqonchilik bilimiga ega kishilarga tender shartnomalari asosida bo'lib berilgan.Natijada qishloq xo'jalik maqsulotlarining asosiy qismi deqqon-fermer xo'jaliklar ulushiga tuqri kelmoqda.qolaversa, deqqonning meqnatga bo'lgan munosabati o'zgargan, u o'z meqnatidan moddiy va ma'naviy manfaatdor, butungi deqqon kechagi deqqondan ko'ra ancha farovon yashamoqda.

Ammo yaxshi mablaq topayotgan deqqon o'z mablaqi qisobiga yangi uy, mashina, danqillama to'y qilish bilangina cheklanib qolayotgandek.To'qri, bular bizning azaliy qadriyatlar qisoblanadi. Ammo, farovonlik deganda faqat bugungi kunni emas, ertangi kuni uchun deqqon o'z xo'jaliklari yonida yordamchi tarmoqlar ochib, ishlab chiharishning boshqa soqalarini ham jumladan, kichik

korxonalar tashkil etish orqali yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Bu esa axolining ish bilan bandligini va qishloqlarimizning taraqqiyotiga xizmat qilardi. Shunday deqqonlar yo'q emas albatta, ammo bunday deqqonlar sonini ko'paytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri.

Qishloq xo'jaligidagi bunday muoammolarni qal etishda o'sha erning raqbarining o'rni kattadir. O'z vazifasini sidqidildan bajarayotgan, faqat xalq dardi bilan yashayotgan qokimlar, qishloq oqsoqollari ko'p albatta. Ammo, guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ayrim raqbarlar oyoqi uzakgiga ilinishi bilan atrofdagi xalq dardini emas, o'z jiqildonini to'yqazishga kirishib ketuvchi raqbarlar ham yo'q emas, albatta.

Orol muammosi ekinzor erlarning sho'rlanishi, ichimlik suvining taqchilligi, moddiy-tabiiy resurslarning qisobligi kabi ekologik vaziyatning izdan chiqish yuzaga kelib turgan bir paytda raqbarning faqat o'zini o'ylash o'sha erdagi muammolarning qol etilmasligiga va oqibatda aqolining davlatdan noroziligining yuzaga kelishiga olib keldi. Mana shu masalada I.Karimov nutqlarining birida shunday e'tirof edi: "...Yuqoridagi raqbarning loqaydligi, qaflat uyqusida yotganligi ish uchun joni ichiydigan vijdonli odamlarning ham shashtini qaytaradi. Bamisoli to'lqin qirchoqqa urulib, orqaga qaytganidek, ularning tashabbusi, qayrat-shijoati ham raqbarning befarq va sovuqqonligiga duch kelib so'nib qoladi."

Raqbarning ma'naviy olamining pokligi ishlab chiharish soqasidami yoki noishlab chiharish tarmoqida bo'lmasin katta rol o'ynaydiki, jamoani ma'lum maqsad sari etaklashda undan fidoyilikni talab etadi. Shu o'rinda I.Karimovning fikrini keltirib o'tsak: "qachonki raqbarning yuragi ham, qo'li ham toza bo'lsa, ta'madan, harazdan yiroq bo'lsa, uning tabiatida qat'iylik bilan aql-zakovat uyqun bo'lsa, faqat shundagina odamlarning ham-tashvishlarini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi" qishloq xo'jaligi maqsulotlarini qayta ishlash korxonalar sonini ko'paytirish kerak. Maqsulotni xom ashyo qolidan, maqsulot sifatida sotish katta foyda keltiradi. Bu esa qishloqlarimizning moddiy mablaqining olishishiga, ishchi o'rinlarini ko'paytirishiga olib keladi.

O'zbek xalqi hamisha jamoa bo'lib yashagan, uning kundalik turmush tarzi, dunyoharashi, ma'naviy olami shu asosda shakllangan. O'zaro qurmat, meqr ko'rsatish, bir-birini suyaash-azaliy qadriyat qisoblanadi. Ammo, har narsaning o'z o'rin va me'yor bor, albatta. Ba'zan esa maqalliychilik, oshna-oqaynigarchilikga shu qadar berilib ketamizki, natijada bu ishimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini sezmay qolamiz. I.Karimov, mana shu masalada, o'z nutqlarining birida shunday degan ediki, "Biz ishonib raqbarni tayinlasak, oradan bir yil o'tib harasak, o'sha raqbar o'z atrofiga butun tanish-bilishlarini, oshna-oqaynisini to'plab olgan bo'ladi. Oshna-oqaynilarining birortasini ishdan olish kerak bo'lib qolganda, o'sha raqbar o'z nomidan emas, bizning nom bilan, ya'ni prezident nomidan ish ko'radi" deganlarida, maqalliychilik va oshna-oqaynigarchilik qaddan oshib ketsa, bu illatga aylanib ketishini nazarda tutgan edilar.

Muommolarimiz qali etarli.Ekologik muommolar aqoli soqligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.Turli yuqumli kasalliklarning, kamqonlik, organizmda yod etishmasligini oldini olish chora-tadbirlari ko'lamini yanada kengaytirish lozim.Soqlom avlod kelajakda qancha ko'rpayso, mamlakat taraqqiyoti yuksalib boradi.Afsuski keyingi paytlari shuncha qilingan amaliy tadbirlarga haramay aqoli o'rtasida, ayniqsa, yoshlar orasida giyoqvandlik, spirtli ichimlik iste'mol qilish, yuqumli kasallikka uchraganlar ko'payib bormoqda.

Demak, tarbiyadami yoki chora-tadbirlarning qaysidir tizimida kamchilik mavjudki, mana shunday qolat mavjud.

Hozirgi globallashuv jarayonida, axborot almashuvi tezlashgan bir sharoitda befarq, loqayd yashash, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik tezda natijasini ko'rsatadi. Chetdan kirib kelayotgan turli buzqunchi qoyalar shunday usullar bilan ta'sir qilayaptiki, oqibatda qali dunyoharashi shakllanib ulgurmagan, ta'sirchan yoshlarning ba'zi qatlamini o'z domiga tortib ketmoqda.

Ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik, jangari fil'mlar qali ham savdo peshtaxtalarida bemalol sotilmoqda va internet saytlari orqali uzatib turilibdi.

Bunday filmlarni ko'rgan bola albatta uning ta'siriga tushmay qolmaydi, deb kim kafolat beraoladi.

Evropacha madaniyat deb qabul qilinayotgan, demokratiya niqobi ostida kirib kelayotgan turli ko'rinishlar yoshlar ogini zaharlamoqda. Yarim yalanqochlik, engil-elpi qo'shiqlar, kliplar nodavlat telekanallardan uzatilayotganligi kechirilmas xol.

Mamlakatimizda inson ma'naviyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish davlat dasturiga kiritilib, butun chora-tadbirlar shunga haratilgan bir paytda qayotimizdagi turli illatlarning oldini olish chora-tadbirlar kuchaytirish zarur.

I.Karimov fikr haramligi qaqida shunday degan edi: "Fikr haramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy va siyosiy haramlikdan ham daqshatliroqdir".

O'zbekiston muommosi bu hammamizning muommomizdir. Uning qal etilishi har birimiz qayotimizga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, albatta. Shunday ekan, ona yurtimizni shu muommolari bilan birga sevishimiz va o'sha muommolarini xal etishga sidqidildan kirishmoqimiz darkor.

Rus chorizmi Turkistonni bosib olib, uning iqtisodiy, moddiy va ma'naviy boyliklarini talon-taroj qilish bilan kifoyalanmadi, bosqinchi mamlakat sifatida erli xalqni har tamonlama bo'qishga, huquqlarini cheklashga, siyosiy ongini yo'q qilishga urundi, siyosiy fa'oliyatdan butunlay chetlashtirish orqali o'ziga yanada tobe etish hamda doimo bo'ysungan xalq sifatida qis etishlari uchun bor usullarni qo'lladi.

Turkiston tarixiga nazar solsak, oliy va o'rta boshharuv lavozimiga rus ginerallari qo'yilgan. Oliy va o'rta boshharuv lavozimidagi maqalliy xalq vakillari surib chiharib yuborilgan. Ular faqat quyi boshharuv lavozimlarigagina qo'yilgan, bular ham qachonki, Chor Rossiyasiga buysungan, uning har qanday topshiriqiga labbay deb javob beradigan kishilar bo'lsagina.

Chor Rossiyasi maqalliy xalq vakillarini yuqori va o'rta boshharuv lavozimiga kelishini istamas edi, chunki bu erli xalqqa nisbatan doimo mensimay, bepisand munosabatda bo'lish oqibati edi. Bundan tashhari, qobiliyatli, iste'dodli, bilimdan va uddaburon odamlardan xavfsirar va ularni iloji boricha chetga surishga intilardi. "Maqalliy xalq orasida, deb yozan edi Turiston ginerel-gubernatori fon Kaufman-xonning amaldorlari va ayniqsa ruqoniylar singari dushmanlarimiz ko'p. Biz bu o'lkaga kelganimizdan keyin ular faqat sobiq mavqe'laridan ajralibgina qolmay, balki yaxshi qayotni ta'minlovchi imknilyatlardan ham maqrum bo'ldi. O'sha toifadagi odamlar o'z jamiyatining ruqi va zaif tomonlarini yaxshi bilganliklari uchun avvalgi tartibni tiklash maqsadida xalqni ruslarga harshi otlantirishga qodirdirlar".

Mamlakat xalqi qayoti bilan boqliq barcha masalalarni o'zlari istagancha qal etishardi. Xalqning tashvishi, o'y-xayoli bilan qiziqmas, fikrini so'rab ham o'tirmas edi. Iqtisodga ta'luqli ishlar ham, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya yoki tibbiyotga daxldor masalalar, ijtimoiy- siyosiy muommolar ham faqat yuqoridan qal etilar va agar zarur bo'lib qolsa, tub aqoliga ma'lum qilinar edi. Buni rus amaldori-Farqona gubernatori Ivanning "bir ming sart, bir o'ris soldati etigining poshnasiga arzimaydi", degan so'zlaridan bilsa ham bo'ladi.

Chor Rossiyasi Turkistonni egallar ekan, erli aqolini mensimay ularni siyosiy qayotga qodir emas deb qisoblar va bu erda go'yoki o'zlarini "katta oqa" larcha tutar edilar. Masalan, o'lka sovetlarining IV –qurultoyida so'zga chiqqan xalq komissari, shoviniist Uspenskiy "O'rtoq musulmonlar shuni bilingki, biz sizlarning katta oqalaringizmiz. Siz kichik, va tushunarliki bizga bo'ysunishingiz kerak." deb daqdaqa qilganida ana shu shunday harsh mavjud edi. Yana bir shoviniistlardan A.Kadakov ham bu xususda o'z harshlarini shunday bayon qilgan edi: "Turkiston jumquriyatida 95% musulmonlar va faqat 5% ruslar yashaydi va shu 5% butun qokimiyatni deyarli o'z qo'lida ushlab turibdi. Shunday qilib, ozchilik qukumronligi davom etmoqda. Lekin bu vaqtinchalik qol. Musulmonlar dunyosi

tayyor bo'lgach, biz jumhuriyatni boshharish ishini unga topshiramiz! Biz ularga yordam beramiz".

Ularning nazarida go'yoki erli xalq davlat ishlarini tushunmaydi, davlat boshharuvidan bexabar avom xalq. Shuning uchun uning jilovi qozircha evropalik "katta oqalar" qo'lida bo'lmoqi kerak emish! Bu o'zining buyuk betakror tarixini yaratgan, milliy davlatchilik tarixi esa ming yilliklar qa'riga borib tutashadigan, yurt kelajagi, istiqbolini belgilashga qodir, yuksak ezgu maqsadlarga o'zini tikkan qanchalab o'ta zakovotli, saloqiyatli o'qlonlarni yaratgan xalqqa nisbatan bepisantlik, takabburlik edi.

Chor Rossiyasi davrida ham Sovet qokimiyati o'rnatilgandan keyin ham Turkiston xalqi siyosiy qokimiyatidan, qokimiyat esa oddiy fuharolardan begonalashtirilib qo'yilgan edi. Bu mustamlakachilik tizimi umrini cho'zish va barharor qilishning eng ishonchli, tarix sinovidan o'tgan, bosqinchilar tub manfaatlariga to'la mos keladigan an'anaviy usullardan bo'lib qisoblanadi.

Mazlum omma xurofot botqoqiga botsa, siyosiy ongsiz bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy jiqatdan, ilm-fan, texnik taraqqiyotidan qanchalik orqada qolsa, mustamlakachilik istibdodi shunchalik uzoq va bexatar yashashini bosqinchilar juda yaxshi bilar edilar.

Mamlakatda mustamlakachilar o'z rejalarini amalga oshirish uchun maqalliy xalq ma'naviyati, qadimiy madaniy merosiga qaqshatgich zarba berish, ommani ruqan sindirish, madaniy-ma'naviy jiqatdan qashshoqlantirish yo'lini tutishdi. Tub aqolining savodli, siyosiy ongi o'sishi o'z qaq-huquqlarini tanishiga, milliy o'zligini anglashga olib kelar edi. Shuning uchun chor qukumati Turkistonda fanning, ma'rifatning, madaniyatning o'sishiga yo'l bermaslikka harakat qildi. Chor qukumati maqalliy maktablarda dunyoviy fanlardan ko'ra, asosan diniy fanlar o'qitilishi, zamonaviy bilimlarga asoslangan fanlarning bu erda olib kirmaslik, qatto xalq ma'orifi uchun ajratilishi zarur bo'lgan mablaqni ajratmaslik uchun turli baqona-yu, nayranglarni o'ylab topardilar.

Xulosa

Xalqimiz boshiga tez-tez qataqon toshlari otilib turilgan. Xalqning irodasini bukish, uning o'zligini unutib yashashi yo'lida II jaqon urushidan keyin, qatto 80-yillarda ham millatning sara farzandlari barnom qilindi.

“qayta qurish” siyosati tufayli boshlangan “oshkoralik” xalqning erkin nafas olishiga berilgan imtiyozdek tuyuldi. Ammo markazdan yuborilgan Gdlyan va Ivanov boshliq jazo otryadi O'zbekiston uchun «paxta ishi» degan ish ochdiki, bu ish o'z domiga xalqning ko'zga ko'ringan raqbarlari, ziyolilari, deqqon va qanchadan-qancha xodimlarini o'z domiga tortib ketdi.

“Bu jarayon katta bir fojiaga aylanib, butun respublikani hamrab oldi. Keksalardan tortib ayollargacha, bemorlardan tortib bolalargacha hamma-hamma so'roqqa tortildi”.

Bu hama-hamalarning asl sababi shunda ediki, ich-ichidan chirib borayotgan sovet davlatini saqlab qolishga urinish bo'lib, suvga cho'kayotgan kishi xasga yopishgandek, sovet davlati yashab qolishi uchun o'zini har tamonga urayotgan edi. Bu yo'lda xalqlarning mustaqillikka urunishini qirqish, irodasini bukish va markazdan qo'rqish qissini kuchaytirish uchun har qanday usullarni qo'llayotgandi. “Paxta ishi” esa xalqning boshiga kelgan yangi qatoqon uchun bir baqona. Markazdan kelgan desantchilar maqalliy raqbarlarni badnom qilish, ta'qib ostiga olish, ularni Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan kelgan kishilar bilan almashtirish bilan respublikaning 3000 dan ortiq raqbarlari o'z vazifasidan bo'shatildi. Raqbarlarni ishdan olish shu darajada kuchaydiki, ayrim joylarda bir yilning o'zida uch marta raqbar almashtirildi. Bu xalqning kuzga ko'ringan kishilarini taqqirlash, obro'sizlantirish va shu yo'l bilan butun bir xalqqa tazyiq o'tkazish edi.

Ularning fikricha poraxo'rlik va qo'shib yozish faqat O'zbekistonga xos illat bo'lib, guyoki bu illat Rossiyada, Moskvada yo'qdek.

Ular qech kimga shafqat qilmadi. Kichkina xatoni tuyadek ko'rsatishga, yo'q joydan ayb qidirishga kirishib ketdilar. "Tozalash" ishlariga shunchalik berilib ketdiki, qatto o'zlarining "kim ekanligi-yu, qanday ayblar bilan sudlanganlari ham esdan chiqib ketdi. hamma oq, faqat o'zbeklar "qora".

Yaxshiyamki mustaqillik shamoli esib qoldi. Bu shamol O'zbekiston osmoniga yopirilgan qora bulutlarni surib yubordi. Agar bu shamol kelmaganda edi, yana necha minglab begunoq odamlar qatoqonga uchragan, millatning sara farzandlari gulzordagi ochilgan gullar qirqib tashlagandek qirqin qilinar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent: O'zbekiston, 1994 y.
2. Islom Karimov. qalollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin. Toshkent, O'zbekiston, 1994
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1998
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T: O'zbekiston, 1999
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 7-jild, Toshkent, «O'zbekiston»
6. 1999
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-jamiat taraqqiyotining asosi. 10-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1999
8. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblari. Xalq so'zi 1999 y. 3 fevral.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T.: «O'zbekiston», 2001.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T.: «O'zbekiston», 2001
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat» 2008.
12. Ma'naviy yuksalish yo'lida. (Mualliflar jamoasi) Toshkent, «Ma'naviyat» 2008
13. Milliy istiqlol qoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston», 2001.
14. X.Ziyoev. «Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi» Toshkent 1991 y 58-bet
15. Q.Usmonov. M. Sodiqov O'zbekiston tarixi Toshkent 2003 y 20-bet
16. Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. T., O'zbekiston, 1996 y.
17. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., Sharq, 1998 y.
18. M. Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T. 2001

- 19.Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T,: Toshkent Islom universiteti, 2001
- 20.Milliy istiqlol qoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston», 2001.